e-ISSN 3060-5059
DOI: 10.67227


IJTIMOIY-GUMANITAR SOHADA ILMIY-INNOVATSION TADQIQOTLAR

ILMIY METODIK JURNAL

Scientific and Innovative Research in Social and Humanitarian Studies

Vol. 3 • Issue 11

2026



Founded in 2024

publishscience.uz | publish_science_journal@mail.ru

PEER REVIEWED • OPEN ACCESS

Ijtimoiy-gumanitar sohada ilmiy-innovatsion tadqiqotlar
Scientific and Innovative Research in Social and Humanitarian Studies
ISSN 3060-5059 (Online)
Article / Original paper https://doi.org/10.67227/gebp0q07

SAKKOKIY DEVONI LEKSIKASINING TARIXIY TARAQQIYOTI VA MAVZUIY XUSUSIYATLARI

Abduxalikova Maftuna Mirali qizi
Jizzax davlat pedagogika universiteti, o‘qituvchi.
e-mail: abduxalikovamaftuna276@gmail.com **ORCID**: https://orcid.org/0009-0008-2677-4369

Annotatsiya.
Mazkur maqolada Sakkokiy devoni leksikasining mavzuiy guruhlari, ularning shakllanishi va lingvistik xususiyatlari tahlil qilinadi. Asar tilidagi lug‘aviy birliklar semantik va qo‘llanish xususiyatlariga ko‘ra tasniflanib, antroponimlar, toponimlar, zoonimlar, teonimlar, yegulik va ichimlik nomlari hamda inson tana a’zolarini ifodalovchi leksemalar alohida mavzuiy guruhlar doirasida o‘rganiladi. Tadqiqot natijalari Sakkokiy devonining leksik tarkibi boyligini ochib berish, shuningdek, eski turkiy adabiy til va eski o‘zbek adabiy tili o‘rtasidagi tarixiy-lisoniy uzviylikni yoritishga xizmat qiladi.

Kalit so‘zlar: Sakkokiy, devon, eski o‘zbek adabiy tili, eski turkiy til, leksika, lug‘aviy qatlam, mavzuiy guruhlar, leksik-semantik xususiyatlar, antroponimlar, toponimlar, zoonimlar, teonimlar, diniy leksika.

ИСТОРИЧЕСКОЕ РАЗВИТИЕ И ТЕМАТИЧЕСКИЕ ОСОБЕННОСТИ ЛЕКСИКИ ДИВАНА САККОКИ

Абдухаликова Мафтуна Мирали кизи
Джизакский государственный педагогический университет, преподаватель.

Аннотация.
В статье анализируются тематические группы лексики дивана Саккоки, особенности их формирования и лингвистические характеристики. Лексические единицы произведения классифицируются по семантическим особенностям и характеру употребления. В рамках отдельных тематических групп рассматриваются антропонимы, топонимы, зоонимы, теонимы, наименования пищи и напитков, а также лексемы, обозначающие части человеческого тела. Результаты исследования способствуют раскрытию богатства лексического состава дивана Саккоки и освещению историко-лингвистической преемственности между старотюркским литературным языком и староузбекским литературным языком.

Ключевые слова: Саккоки, диван, староузбекский литературный язык, старотюркский язык, лексика, лексический пласт, тематические группы, лексико-семантические особенности, антропонимы, топонимы, зоонимы, теонимы, религиозная лексика.

HISTORICAL DEVELOPMENT AND THEMATIC CHARACTERISTICS OF THE VOCABULARY OF SAKKOKI'S DIVAN

Abduxalikova Maftuna Mirali qizi
Jizzakh State Pedagogical University, Lecturer.

Abstract.
This article analyzes the thematic groups of vocabulary in Sakkoki's Divan, their formation, and linguistic characteristics. The lexical units of the work are classified according to their semantic features and patterns of usage. Anthroponyms, toponyms, zoonyms, theonyms, names of food and beverages, and lexemes denoting parts of the human body are examined within distinct thematic groups. The findings contribute to revealing the richness of the lexical composition of Sakkoki's Divan and highlighting the historical and linguistic continuity between the Old Turkic literary language and the Old Uzbek literary language.

Keywords: Sakkoki, divan, Old Uzbek literary language, Old Turkic language, vocabulary, lexical stratum, thematic groups, lexical-semantic characteristics, anthroponyms, toponyms, zoonyms, theonyms, religious vocabulary.

Kirish. Sakkokiy devoni tiliga xos lug‘aviy qatlamlar, fonetik va grammatik xususiyatlarning qarluq, chigil, yag‘mo, uyg‘ur tillari negizida tashkil topgan adabiy til bilan mushtaraklikka ega ekanligi, ayniqsa, keyingi asrlarda bitilgan asarlar tiliga yaqinligi kabilar eski turkiy adabiy tildan eski o‘zbek adabiy tiliga o‘tishda Sakkokiy devoni ko‘prik bo‘lganligidan dalolat beradi. Asar o‘zining leksik xususiyatlari bilan o‘sha davrdagi eski turkiy adabiy tilning lug‘aviy boyligini aks ettiradi.

ISSN 3060-5059 (Online)

So‘zlarni mavzuiy guruhlarga jamlash tilning ichki qonuniyatlaridan kelib chiqqan holda emas, ko‘proq tashqi belgilari orqali amalga oshiriladi. Bunda so‘zning ma’nosi qaysi turkumga aloqadorligi yetakchi o‘rin tutadi. Bu jihatdan so‘zlarni mavzuiy guruhlarga ajratish leksemalarni leksik-semantik guruhlarga bo‘lib o‘rganish usulidan farq qiladi va u o‘zida tilning spetsifik munosabatlarini gavdalantirmaydi [4.163].

So‘zlarni mavzuiy guruhlarga ajratish muayyan xalq tilida qaysi sohalarga oid leksikaning boy yoki kambag‘alligini belgilashda katta o‘rin tutadi. O‘z va o‘zlashgan qatlam leksikasini mavzuiy guruhlarga bo‘lish va ularni qiyosiy o‘rganish o‘z qatlamda qanday sohalarga oid so‘zlar saqlanib turgani, qaysi sohalarga doir leksemalar tarixan iste’moldan chiqib ketgani va ular o‘rnini o‘zlashgan so‘zlar egallaganini aniqlashga yo‘l ochadi. Ayni paytda aytish joizki, xalqning ijtimoiy-siyosiy hayoti, madaniy turmushi, diniy qarashlariga oid ma’lumotlar so‘zlarning mavzuiy guruhlarida o‘zining yaqqol ifodasini topadi. Demak, leksemalarni mavzuiy guruhlarga ajratib tadqiq etish tilning xalq hayoti bilan bog‘liq tomonlarini yoritishga xizmat qiladi [2.121]. Kuzatishlarimiz obida tilida quyidagi mavzuiy guruhlar qayd etilganligini ko‘rsatdi.

Antroponim ham onomastikaning xuddi toponim yoki zoonim kabi lisoniy birligi bo‘lib, u o‘z ichiga aniq birliklarni oladi. Masalan, N. V. Podolskaya antroponim termini haqida fikr yuritar ekan, uning tarkibiga ism, otchestvo, familiya, laqab, taxallus, kriptonim (laqab, ism, nom), andronim, ginekonim, patronim kirishini qayd qilgan. Biror tildagi antroponimlar majmui antroponimiya (xuddi toponimiya, zoonimiya kabi) deb yuritiladi. Masalan, o‘zbek antroponimiyasi, qozoq antroponimiyasi kabi. Antroponimlarni tadqiq qiluvchi soha antroponimika deb nomlanadi va onomastikaning bu bo‘limi antroponimlarning lisoniy va nolisoniy xususiyatlarini tadqiq qiladi. Aniqroq aytganda, o‘zbek tilidagi kishi atoqli oti bo‘lgan quyidagi onomastik vositalar o‘zbek antroponimiyasining birliklaridir:

1. Ismlar — aniq shaxsga berilgan ismlar.
2. Laqablar.
3. Taxalluslar.
4. O‘zbeklarda shaxsni nomlashning o‘tmishda mavjud bo‘lgan ba’zi shakllari (“qizi”, “o‘g‘li”) yordamida nomlash.
5. Shaxsni uning ismiga o‘tmish ajdodlarining nomini qo‘shish orqali atashning arabcha shakllari (“ibn”, “binni”) yordamida nomlash.
6. O‘tgan asrning 20–30-yillaridan rasmiy ravishda majburan qabul qildirilgan ruscha familiya va ota ismlari [3.11].

Yuqorida keltirilganlar antroponimik birliklardir va ularni o‘zbek antroponimiyasi o‘rganadi.

Antroponimlar. Sakkokiy devonida mazkur guruhga kiruvchi antroponimlar, o‘z navbatida, leksik-semantik xususiyatlariga ko‘ra quyidagi guruhlarga taqsimlanadi:

1. Diniy antroponimlar:

a) Tangri va uning sifatlarini ifodalovchi so‘zlar: Ug‘an, Haq, Xudo, Tangri kabilar.

Chinor kafini ko‘torip ayur bu holda Ug‘on,
Emonda tutsun anikim ogar Arabu Ajam. (Devondan...)
Ug‘on jonlar yaratip bu jahong‘a ro‘zi berganda,
Faqir Sakkokiyg‘a barcha g‘amu g‘ussa ato qildi. (Devondan...)

b) Allohning ismlari: Xāliq — yaratuvchi, Haq — haqiqatan mavjud zot. Asarda Xudoning sifatlarini bildiruvchi boshqa terminlar ham qo‘llanilgan: haq: Bilig bil esanma bil ol haq rasul; xāliq: Anp ne xalāyiq sevar ne xāliq.

Payg‘ambar alayhissalomlarning ismlari va sifatlari: Muso, Sulaymon, Iso, Rasul, Habib, Muhammad (sallallohu alayhi vasallam).

Mamolik nozimivu dinning qo‘rug‘idur sharif zoting,
Nabiyteg shar’ ishinda zamiring xurdadon keldi. (14-bet)

Manbalarda qayd etilishicha, agar payg‘ambarlikka tanlangan kishiga boshqa kishilarning aqidasini — dunyoqarashini to‘g‘rilash vazifasi yuklatilsa va yangi alohida shariat (qonun-qoidalar) olib kelsa, ya’ni elchilik qilsa, bunday kishilar “rasul” deb nomlanadi. Yangi shariat olib kelmay, o‘zidan avvalgi payg‘ambarlar shariatiga amal qila turib, insonlarni yolg‘iz Allohning o‘ziga ibodat qilishga, unga shak keltirmaslikka da’vat etganlar esa “nabiy” deyiladi. Demak, rasul kitob va shariat sohibi, nabiy esa o‘zidan oldin kelgan rasulning shariatiga xalqni da’vat etish bilan vazifalantirilgan bo‘ladi. Ammo Sakkokiy devonida “rasul” nisbasi uchramaydi. Biroq ularning ismlari keltirilgan:

“Muhammad xulqu Yahyo sidqu Muso yad, Masiho dam”. (27-bet)

Shu misraning o‘zida to‘rt payg‘ambarning ismi va sifati keltirilgan. Ma’lumki, har bir payg‘ambarning mo‘jizasi bo‘lgan. Jumladan, Muhammad alayhissalomga dunyodagi eng go‘zal xulq ato qilingan. “Muhammad xulqi” deyilmoqda, ya’ni bu olamda eng go‘zal xulqli inson Muhammad payg‘ambarimiz hisoblanadi. Ikkinchisi — “Yahyo sidq”, Yahyo ismli payg‘ambarning eng ishonchli sifati bayon qilinadi. Uchinchisi — “Muso yad”, ya’ni Muso alayhissalomga ham Alloh taolo tomonidan “yad” — “mo‘jiza ko‘rsatuvchi qo‘l” berilgan. To‘rtinchisi — “Masiho dam” sifati Iso alayhissalomning sifati bo‘lib, bu payg‘ambarning kasallarga shifo beruvchi, hatto o‘liklarni tiriltiruvchi xususiyatga ega bo‘lganligi manbalardan ma’lum.

g) Xalifalarning ismlari va nisbalari: Umar, Usmān, Ali, Siddiq, Faruq, Zin-nurayin. Sakkokiy devonida islomda “xulafo ar-roshidin” — to‘g‘ri yo‘ldan borgan xalifalar, diniy jamoada “choryorlar” deb atalgan xalifalar to‘g‘risida ham ma’lumotlar uchraydi. Jumladan, ikkinchi xalifa — Umar (barhayot), uchinchi xalifa — arabcha Usmān (og‘ir, bosiq; mard, jasur), to‘rtinchi xalifa — arabcha Ali (eng yuksak, eng ulug‘, yuqori martabali) antroponimlari ifodalangan. Birinchi xalifa sanalgan Abu Bakrning esa arabcha Siddiq (rostgo‘y, to‘g‘ri so‘zlovchi) nisbasi keltirilgan:

Ul amir ul-mo‘minin — Bu Bakru Usmonu Umar,

ISSN 3060-5059 (Online)

Shohi mardon, sheri Yazdon, Haydari zu-Zulfiqor. (7-bet)

Shuningdek, qayd etilgan misralardan xalifa Umarning arabcha Faruq (adolatli, haq bilan nohaqni ajratuvchi), xalifa Usmonning arabcha Zin-nurayin (go‘zal xulqli, ikki nur egasi) sifatlari qo‘llanishda bo‘lganligini bilib olish mumkin.

Toponimlar: Turkiston, Turk, Hind, Rum, Chin, Xaybar, Buxoro, Iroq, Sipahon, Hijoz, Tay kabi. Buni shoir tilidan aytilgan quyidagi misralar ham tasdiqlaydi:

Ikki dunyoni sening haqqingda paydo qildi Haq,
Xud na bo‘ldi xizmatingda Turku Hindu Rumu Chin.
Yarashmaq ichra erur mumu urush ichra fo‘lod,
Aning qilichi harifi na Turku na Daylam. (23-bet)
Navo bila qilur ul rost har muxolifni,
Qo‘li Iroqu Sipahon, Hijoz, ursa qadam. (23-bet)

Zoonimlar: Quyon, tulku, kiyik, arslan, yağan, yplan, fil, palang, bars, bo‘ri, arslon, surur, qovlar, torumtay, qarqunaq, qirg‘iyu bayg‘uy kabilar.

Quyon, tulku, kiyik, arg‘ar sening adlingda ushbu kun,
Palang, barsu bo‘ri, arslonni koj urub, surur, qovlar. (28-bet)

Asarda forsiycha *palang* so‘zi uchraydi. U “O‘zbek tilining izohli lug‘ati”da “qoplon; yo‘lbars” deb izohlangan.

Quyon — tovushqonlar oilasiga mansub, quloqlari va orqa oyoqlari uzun sutemizuvchi. Yovvoyi quyon. Xonaki quyon.

Bars — bars, qoplon. Bars — turkcha o‘n ikki muchal yillaridan birining nomi. Turklar o‘n ikki xil hayvon ismini o‘n ikki yilga ot qo‘yganlar. Tug‘ilish, jang tarixlari va boshqalarni ana shu yillar aylanishidan hisoblaydilar (174) [5.234].

Yuzinga zulfidur hoyil raqibi la’lidin mone’,
Yilonsiz topmadim ganju tikansiz ko‘rmadim xurmo. (18-bet)

Yplan zoonimi o‘rganilayotgan asar tilida ham ifodalangan: Yplan yumšaq erkdn yavuz fe’l tutar. “At-tuhfa” (10a12) va “Kitob bulg‘at” obidalarida plan (15a5) shakli ko‘zga tashlanadi. Termin eski o‘zbek tili yodgorliklarida ham ifodalangan: fusungar afsun bild yplannp tsškdin čpqarur (Navoiy, III, 217).

Torumtay, qarqunaq, qirg‘iyu bayg‘uy, gar solur bo‘lsang,
Olur cherig‘u aylar nasru tutar fathu zafar ovlar.
Erur raxshing chinuq kabku xumoyu to‘tivu bulbul,
Nekuraftoru farruxfol, shirintarabu sa’d axtar. (28-bet)

Bulbul — forsiycha so‘z bo‘lib, “O‘zbek tilining izohli lug‘ati”da chumchuqsimonlar turkumining qorayaloqlar oilasiga mansub sayroqi qush deb izohlangan.

To‘ti — forscha nom bo‘lib, tropik o‘rmonlarda yashaydigan, ko‘pchilik turi chiroyli, rang-barang patli qush.

Turumtay — lochinlar oilasiga mansub mayda kunduzgi lochinlar turi. Turumtoy — qadimgi turkiy tilda kichik yirtqich qush. Biroq bu so‘z qirg‘iz va oltoy tillarida saqlanib qolgan [13]. Kabk — kaklik, qushlarning bir turi hisoblanadi [10].

Qarqunoqlar — chumchuqsimonlar turkumiga mansub sayroqi qushlar oilasi. Uzunligi 16–36 sm. Tumshug‘i ikki yondan siqilgan, uchi yirtqich qushlarniki singari ilmoqqa o‘xshash qayrilgan. Dumi uzun, ingichka. 12 urug‘i, 72 turi ma’lum. Shimoliy Amerika, Yevropa, Afrika va Osiyoda tarqalgan. Butalar va siyrak daraxtlar o‘sadigan joylarda, yalangliklarda yashaydi. Hasharotlar va mayda umurtqali hayvonlar bilan oziqlanadi [12].

“Devonu lug‘otit turk”da “qirg‘iy” to‘g‘risida shunday ma’lumotlar keltiriladi: “Kichik chaqqon, shijoatli bo‘lsa ham, katta bilan olishishga qudratsizdir. Chunki kattaning hiyla va ziyrakligi bor. Shunga o‘xshash qirg‘iy shunqorga teng kelmas”.

Kichik ulug‘qa turushmas, qïrg‘uj soңqurqa qarïshmas [6.63].

Teonimlar: yazuq, qul, savāb, insāf, halāl, harām, e’tiqād, rahmat.

Qul istilohi “Xudoga itoatli kishi” ma’nosini ifodalagan: Nəchə ma xatalıq qul ərsəm səңə. Obidada ezgu, yaxshi amallar arabcha savab: Qalur sabr izisi savabын tutub; adolat va vijdon bilan ish tutish esa insaf teonimi bilan berilgan:

Pariteg chehranga bo‘ldi bali Sakkokiy devona,
Vale insof yo‘linda erur ul asr donosi. (53-bet)

Savab teonimi šavāb (un) shakliga ega; o‘zbek tiliga se undoshini s undoshiga, cho‘ziq ā unlisini v unlisiga almashtirib qabul qilingan: šavāb → savvb; šāba fe’lining “mukofotladi, taqdirladi” ma’nosi asosida hosil qilingan [7.366–367].

Haybatingdin har zamon Ching‘a tilar kirsa mo‘g‘ul,
Rahbaring chun baxtu davlat, rayi tadbiring savob. (40-bet)

Yozma manbada dinda ruxsat etilgan narsalarni bildiruvchi arabcha halol atamasi asarda bir o‘rinda keladi.

Qonim halol, to‘ksa qilichingg‘a su bilan,
Oldim chu bo‘ynuma o‘zum oning vubolini. (59-bet)

Taqiqlangan, rad qilingan ishlar arabcha haram atamasi bilan ifodalangan. Ushbu atamalar dastlab “Qutadg‘u bilig” asarida kuzatiladi: halal ham haram — halol va harom. Halal istilohi halāl (un) shakliga ega; o‘zbek tiliga hoyi hutti undoshini h undoshiga, ā unlisini o unlisiga almashtirib qabul qilingan: halāl → halol. “Qoidaga rioya qilindi, qonuniy bo‘ldi” ma’nosini ifodalovchi halla fe’lidan hosil qilingan I bob aniq nisbat sifatdoshi bo‘lib, arab tilida “qoidaga rioya qilingan, qonuniy”, o‘zbek tilida esa “shariat hukmiga muvofiq yesa, ichsa, foydalansa bo‘ladigan” ma’nosida ishlatiladi. Haram so‘zi harām (un) shakliga ega; o‘zbek tiliga hoyi hutti undoshini h undoshiga, ā unlisini o unlisiga almashtirib qabul

qilingan: harām → harom. Haruma fe'lining "taqiqladi" ma'nosi asosida hosil qilingan I bob aniq nisbat sifatdoshi bo'lib, "yeb-ichish, foydalanish taqiqlangan" ma'nosini bildiradi [8.569].

Asarda harom so'zi ikki o'rinda keladi:

Jahonda nohaq ish kechti degan xud yo'q magar dam-dam,
Surohi soqiydan qilgay harom qon to'kti dep da'vo. (18-bet)
Eshiking itlari Sakkokiydin qilur faryod,
Kim, uyqu bizga harom o'ldi ushku poyinda. (46-bet)

Sakkokiy devonida arabcha etiqad "Xudoga ishonish, imon" ma'nosida ishlatilgan: Kim ərsə bu tərt əshke bad etiqad; rahmat so'zi esa "marhamat, muruvvat" semasida qo'llangan. Mazkur teonim birinchi marta Yusuf Xos Hojibning "Qutadg'u bilig" asarida keltiriladi: seniŋ rahmatpŋda bu yazuq az-oq — sening marhamating oldida bu gunoh ozdir.

Etiqad istilohi i'tiqāt (un) shakliga ega; o'zbek tiliga kasrali hamzani e tovushiga, cho'ziq ā unlisini o unlisiga almashtirib, sukunli ayn o'rniga ' (ayirish) belgisini qo'yib qabul qilingan: i'tiqāt → e'tiqod. Bu so'z asli "bog'ladi" ma'nosini anglatuvchi 'aqada fe'lining VIII bob masdaridan hosil qilingan [9.515].

Dushmaning keldi qadamg'avu yog'ilar bo'ldi el,
Haq ishin oson qilur, kim Haqqa qilsa e'tiqod. (20-bet)

Rahmat arabcha raħmat (un) shakliga ega; o'zbek tiliga hoyi hutti undoshini h undoshiga almashtirib qabul qilingan: raħmat → rahmat. "Rahm-shafqat qildi" ma'nosini anglatuvchi raħima fe'lining I bob masdari bo'lib, arab tilida "rahm-shafqat" ma'nosini bildiradi; o'zbek tilida esa bu so'z asosan "tashakkur" semasida ishlatiladi [9.574].

Ketib qish zahmati, keldi muborak yoz bila rahmat,
Kecha-kunduz kerak qilsaq chaman sahnida ma'voni. (21-bet)

6. Yegulik va ichimliklar: azuq, asal, aš — "ovqat", šarāb, suw, qand, nabot kabilar.

"Ovqat, yegulik" tushunchasini bildirgan azuq leksemasi ilk bor Kul Tigin bitigida keltirilgan. Ushbu so'z Mahmud Koshg'ariyning "Devon"i hamda "Tafsir"da o'zining asl semasini saqlagan: Sartnpŋ azuqp arpğ bolsa, yol zd yer (1,97); Ta'amnpŋ qamuğpn alurlar biz farzandalrpmpz birld azuqspz qalurmpz (89b6). Mazkur leksema o'rganilayotgan doston tilida ham o'z ma'nosini davom ettirgan: Bu baylыq cныg'aylыq azuq yoqlug'ы. XIV asr Xorazm yozma manbalarida azuq, azpq shakllari kuzatiladi: Vafādpn sŋ bu yolda azuqum yoq (XSh, 83a16); Payğambar aydp: ya Hadiča mdŋd azpq qplu bergil (NF, 4b8). Bu ot qadimgi turkiy tildagi "chaynamoq" ma'nosini anglatgan azu/azp- fe'lidan -q qo'shimchasi bilan yasalgan [9.42].

Arabcha asal leksemasi ilk bor Sakkokiy devonida ifodalangan:

Oshiri ashrayn chiqarip mustahaklarg'a berur,
Andin o'ttilar oru, asal, qandu nabot. (23-bet)

Termin "Qisasi Rabg'uziy" asarida o'z ma'nosini davom ettirgan: ...Birin aru yedi asal boldp (12v14). Asal o'zlashmasi "surkaldi, yopishdi" ma'nosini anglatuvchi 'asala fe'lining I bob masdari bo'lib, asli "yopishqoq narsa" ma'nosini bildirgan; keyinchalik bu so'z "bol" ma'nosini ifodalay boshlagan [9.41]. Tekshirilayotgan ma'no dostonda arabcha šahd o'zlashmasi va arp zahri birikmasi bilan ham berilgan: Anpŋ yadp birld šakar-šahd aŋa; Arp zahrp tatar asaltpn oza.

Kishilarning qo'li bilan yaratilgan narsa-predmetlar nomlari: ton — to'n, kiyim, yol — yo'l, kszg — oyna, binā — bino.

Ton leksemasi "Qutadg'u bilig"da "kiyim" ma'nosini ifodalagan: ...sarpğ al ağp ton kedip — sariq, qizil rangli shohi to'n kiyib. "Devonu lug'otit turk" asarida "kiyim", "to'n, chopon" semalarida qo'llangan. Tadqiqot obyekti qilib olingan dostonda ham ushbu semalarda ishlatilgan: "kiyim": Ksnilik tonpn kiy qoypb egrilik; "to'n, chopon": Ayursan kezim, ton, šarāb, aš kerdk. Demak, leksemada ma'no torayishi jarayoni XI asr oxirlarida boshlangan.

Qizil to'nim kiyip yashil zabarjad taxt uza og'na,
Shirinmu aytayin gulga, yo Xusravmu deyin oni. (30-bet)

Sakkokiy devoni leksik, fonetik va grammatik jihatdan, birinchi navbatda, XI–XIII asrlarda qo'llangan turkiy adabiy tilning barcha xususiyatlarini aks ettiradi, turkiy qabila tillarining ancha rivojlanganini ko'rsatadi. Shu bilan birga, bu asar o'zining til xususiyatlari jihatidan ma'lum tafovut va farqlarga ega bo'lishiga qaramay, XIII–XIV asrlarda yaratilgan asarlarning tili bilan umumiylikka ega.

Sakkokiy devoni tilida, asosan, "Harakat, nutq va faoliyat bilan bog'liq tushunchalarni anglatuvchi leksemalar", "Xususiyat va belgini bildiruvchi leksemalar", "Teonimlar", "Kishilarning qo'li bilan yaratilgan narsa-predmet nomlari" singari mavzuiy guruhlarga kiruvchi istilohlar faol qo'llanilgan. Asarda hayotning deyarli barcha sohalariga oid narsa-predmetlar, voqea-hodisalarni ifodalovchi leksemalar uchraydi. Binobarin, so'zlarni mavzuiy guruhlarga ajratish tilning lug'at tarkibini tizimli o'rganishning qulay usullaridan hisoblanib, devonda qo'llanilgan leksik birliklarning qaysi sohaga tegishli ekanligini, kelib chiqishini, o'z qatlamga doir so'zlarning o'zlashmalar bilan o'zaro munosabatini hamda ularning qo'llanish doirasini aniqlashga, tilning tarixiy va zamonaviy holatini baholashga, qolaversa, xalq tarixini atroflicha yoritishga ko'maklashadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Aldashev A. A. Biologiya atamalari va hayvonlar nomlarining ruscha-qirg'izcha lug'ati. – Bishkek, 1998. – ISBN 9967-11-027-9.
2. Begmatov E. Hozirgi o'zbek adabiy tilining leksik qatlamlari. – Toshkent: Fan, 1985. – B. 121.
3. Begmatov E. O'zbek tili antroponimikasi. – Toshkent: O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi «Fan»

ISSN 3060-5059 (Online)

nashriyoti, 2013. – B. 11.

4. Гольдин В. Е. Об одном аспекте изучения тематических групп слов // Язык и общество. – Москва, 1970. – Вып. 2. – С. 163.

5. Koshg‘ariy Mahmud ibn Husayn. Turkiy so‘zlar devoni (Devonu lug‘oti-t-turk): uch jildlik va indeks. – 1-jild / tarj. S. Mutallibov; nashrga tayyorlovchilar H. Boltaboyev, B. Isabekov; mas’ul muharrir H. Dadaboyev. – Toshkent: Mumtoz so‘z, 2016. – B. 234.

6. Koshg‘ariy Mahmud ibn Husayn. Turkiy so‘zlar devoni (Devonu lug‘oti-t-turk): uch jildlik va indeks. – 2-jild / tarj. S. Mutallibov; nashrga tayyorlovchilar H. Boltaboyev, B. Isabekov; mas’ul muharrir H. Dadaboyev. – Toshkent: Mumtoz so‘z, 2016. – B. 63.

7. Rahmatullayev Sh. O‘zbek tilining etimologik lug‘ati (arab so‘zlari va ular bilan hosilalar). – Toshkent: Universitet, 2003. – B. 366–367.

8. Rahmatullayev Sh. O‘zbek tilining etimologik lug‘ati (arab so‘zlari va ular bilan hosilalar). – Toshkent: Universitet, 2003. – B. 569.

9. Rahmatullayev Sh. O‘zbek tilining etimologik lug‘ati (arab so‘zlari va ular bilan hosilalar). – Toshkent: Universitet, 2003. – B. 574.

10. Фарҳанги тафсирии забони тоҷикӣ: иборат аз 2 ҷилд. – Пажӯҳишгоҳи забон ва адабиёти Рӯдакӣ, 2008.

11. Филин Ф. О лексико-семантических группах слов // Езиковедски изследвания в чест на акад. Ст. Младенов. – София, 1957.

12. O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi. – Toshkent: O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi davlat ilmiy nashriyoti.

13. Турумтай // Википедия . – URL: https://ky.wikipedia.org/wiki/Турумтай.

14. Jo‘rayev J., Xatamov O. Mavlono Sakkokiy devon. – Toshkent: Bookmany Print, 2024.